

**ZOMIN DAVLAT QO'RIQXONASIDA GAT XARITALAR YARATISH
(O'ZBEKISTONDAGI ENG QADIMIY TABIAT QO'RIQXONASI)**

Ulugova Safargul Fayzullaevna

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti, safargul.ulugova.78

Mirsaidov G'iyosiddin Saloxiddin o'g'li

ToshDAU magistri, giyosiddinmirsaidov8@gmail.com

Kirish. Yozning jaziramasi barchani soya-salqin, baland vuqorli tog'lar sari chorlagani shubhasiz. Ana shunday issiq kunlarda, ayniqsa, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Samarqand viloyatlari aholisi Zomin, Baxmal tumanlaridagi qorli, qalin archali tog' bag'riga kelib, hovirini bosdi.

“Zomin davlat qo'riqxonasi” Jizzax viloyatining Baxmal va Zomin tumanlari hududida joylashgan bo'lib, Baxmal o'rmon xo'jaligi, “Baxmal” fermerlar uyushmasi, Zomin o'rmon xo'jaligi, “Zomin milliy tabiat bog'i” qo'shni Tojikiston Respublikasi davlat chegarasi bilan chegaradosh. Qo'riqxonaning umumiy maydoni 26 ming 840 gektarni tashkil etadi. Chegaradosh hududlardagi qo'riqxonaga chegarasida 1,5-2 kilometr gacha masofada 8 ming 770 gektar qo'riqlash maydoni mavjud.

1 ming 500 dan 2 ming 500 yoshgacha bo'lgan noyob tabiiy archazorlarni va archazorlardagi hayvonot hamda o'simlik dunyosini asrash maqsadida 1928 yil Turkiston tog' tizmasida “Zomin tog' archazorlari” Davlat qo'riqxonasi tashkil etilgan. Mazkur qo'riqxonaga hududidagi vuqorli tog'lar dengiz sathidan 1 ming 700 metr dan 4 ming 29 metr gacha balandlikka ega uch zonani – tog'larning pastki, o'rta va yuqori qismlarini o'z ichiga oladi.

Qo'riqxonaga yerlari tarkibiga asosan tog' tizimlari kirib, hududning janubiy qismi Turkiston tog' tizmasining tik jarliklaridan, shimoliy qismi esa biroz tekisroq rel'efli supalardan iborat. Ushbu hududlarda “Qizil kitob” ga kiritilgan qo'ng'ir tog' ayig'i, shuningdek, bo'ri, tulki, jayra kabi yirtqichlar, tog' echkisi, to'ng'iz kabi o'txo'rlar, kaklik, bedana, bulbul kabi sayroqi qushlar ham qo'nim topgan.

ZOMIN TOF-O'RMON DAVLAT QO'RIQXONASI - Jizzax viloyatida joylashgan. Turkiston tizma toglari g'arbiy qismining shim. yon bag'rida, Ko'lsoy va G'o'ralasoy havzalarini ishg'ol etgan. Jan. Tojikiston bilan chegaradosh. Maydoni 15,5 ming ga, shundan 11,2 ming ga archa o'rmonzorlari. Dastlab 1926 y. da G'o'ralas tog'-archa qo'riqxonasi nomi bilan tashkil etilgan. Qo'riqxonada tog' o'rmonlarini va archa biol. sini o'rganish, archazorlarni ko'paytirish, hayvon va o'simlik turlarini saqlab qolish ishlari olib boriladi. Relefining murakkabligi va turli iqlimtuproq sharoitlariga ko'ra, qo'riqxonada 3 o'simlik mintaqasi (dasht, o'rmon, subalp) mavjud. Qo'riqxonaga hududi tipik tog'li o'lka bo'lib, dengiz sathidan 1760—3500 m balandlikda (eng yuqori nuqta — Turalas tog'i 3560,5 m balandlikda). Yillik o'rtacha v yog'in miqdori 400 mm dan ortiq. Iqlimi keskin kontinental, maksimal harorat yozda

33°, qishda —35—38°. Qo‘riqxonada hududida archazorlarning quyi qismida (1900— 2700 m) Zarafshon archasi va qora archa, o‘rta qismida (2100—2800 m) sovur archa, yuqori qismida (2100—3200 m) o‘rik archa usadi. Bulardan eng ko‘p uchraydigani sovur archadir. U qora archa va o‘rik archa orasida ham o‘saveradi. Qo‘riqxonada 180, hatto 400 yoshga kirgan archalar bor. Archadan tashqari Tyanshan chetani, Turkiston qayini; butalardan zirk, na‘matak, uchqat, irg‘ay, tobulg‘i o‘sadi. Qo‘riqxonada hayvonot dunyosi xilma-xil. Qo‘riqxonada Respublika Qizil kitobiga kiritilgan turkiston silovsini, oq tirnoqli ayiq, arxar, bars shuningdek, bo‘ri, bo‘rsiq, tulki, jayra, to‘ng‘iz va b. yashaydi. Qo‘riqxonada hududida o‘simliklarning 720, turli qushlarning 130, sut emizuvchilarning 37 turi, sudralib yuruvchilardan 8, baliqning bir turi tavsiflangan.

Zomin davlat tog‘-archa qo‘riqxonasi. Pomir-Oloy (Jizzax viloyati, O‘zbekiston) Turkiston tizmasining g‘arbiy qismining shimoliy yon bag‘rida joylashgan qo‘riqxonada. Asosiy himoya obyektlari — baland tog‘li archa tizimlari (1760-3500 m balandlikda), oq tirnoqli ayiq, soqolli kalxat, qora laylak va boshqalar. Har hil hayvonlar ham bor.

Ma‘lumki, XIX asrning 60-yillarida keyinchalik Zomin qo‘riqxonasiga aylangan hudud rus tabiatshunosi A.P.Fedchenko tomonidan o‘rganilgan. Ushbu hudud florasining birinchi ilmiy tavsifi 1916-yilda Rossiya imperiyasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining ko‘chirish boshqarmasi xodimi Olga Norring tomonidan berilgan. 1926-yildan 1929-yilgacha va 1934-yildan 1951-yilgacha mavjud bo‘lgan Guralash qo‘riqxonasini (taxminan 8500 gektar maydon) yaratish uchun asos bo‘lgan hududlarni to‘liq o‘rmon xo‘jaligi sifatida shakllantirilishi amalga oshirildi.



1-rasm. “Zomin davlat qo‘riqxonasi”



2-rasm. Zomin davlat qo‘riqonasida GAT xaritalar yaratish

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 07.10.1994 йилдаги 498-сон
2. <https://jizzax.uz/8954-zomin-davlat-rihonasi-achon-tashkil-etilganini-bilasizmi.html>
3. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-z/zomin-tof-ormon-davlat-qoriqxonasi-uz/>